

TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRUVCHI MASHQLAR TIPOLOGIYASINING PEDAGOGIK ASOSLARI

PEDAGOGICAL BASES FOR THE TYPOLOGY OF EXERCISES ON ENHANCING STUDENTS' COMMUNICATIVE COMPETENCE

Bazarbayeva Azizaxon Shokirovna

+998958333393

bazarbayeva@pf.fdu.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12720582>

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning muloqotchanlik kompetensiyasini rivojlantirishda samarador hisoblangan mashqlar hamda ularning pedagogic asoslari yoritilgan.

Abstract: In this article the typology of the effective exercises on developing students' communicative competence and their pedagogical bases are presented.

Kalit so'zlar: Talabalar, kompetensiya, muloqotchanlik, mashqlar tipologiyasi.

Key words: Students, competence, communicative competence, typology of exercises.


Ta'lim jarayonini insonparvarlik ruhida tashkil qilish har bir talabaning shaxsini va o'quv faoliyatini erkin ravishda shakllanishiga tegishli shart-sharoitlar yaratilishini taqozo qiladi. Talabalar guruhi ichida, o'qituvchi-talabalar o'rtasida o'rnatilgan samimiy, erkin munosabatlar, quvnoq va shodon kayfiyat, o'zaro hayrixohlik, beg'araz yordam aynan ana shunday psixologik omillardir. Bunday psixologik omillardan foydalanmaslik talabani xato qilib qo'ysa, qattiq tanqid eshitishidan qo'rqadigan, yomon baho olsa, tengdoshlariga mazah bo'lishdan qo'rqadigan, tortinchoq, o'z fikrini aytishdan uyaladigan talaba qilib qo'yadi. Tabiiyki, bunday talabalarning nutqi ham yaxshi rivojlanmay qoladi. Talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlanishiga yo'naltirilgan kommunikativ ta'limda qo'yidagi *psixologik omillarga* asosiy e'tibor qaratiladi:

1. Talabalarga muloqot jarayonida o'z shaxsiy fikrlarini erkin ravishda ifodalash imkoniyati beriladi;
2. Muloqotning har bir ishtirokchisi o'z suhbatdoshining(guruh a'zolarining) diqqat e'tiborida bo'ladi; Bunday muloqotda talabalarning noto'g'ri, qarama-qarshi va mantiqqa zid fikrlari ham qo'llab-quvvatlanadi. Chunki, ularning hammasi talabalarning mustaqil fikrlayotganidan, faol o'quv faoliyatiga kirishganidan dalolat beradi;
3. Muloqot ishtirokchilari o'zlarini tanqid qilishlaridan, xatolarga yo'l qo'yishliklaridan cho'chimaslikka o'rganadilar;
4. Muloqot topshirig'ini juft bo'lib yoki guruh bo'lib bajarishda har bir talabaning individual xususiyatlari, qobiliyati va o'zlashtirish darajalari hisobga olinadi;
5. Juftliklararo, guruhlararo munosabatlar samimiy, do'stona yordam, o'zaro bir-birlariga hayrixohlik, bir-birini tushunish ruhida tashkil qilinadi;
6. Muloqot jarayonida yo'l qo'yilgan til normalarining buzilishi, noto'g'ri talaffuzlar o'sha vaqtning o'zidayoq to'g'rilanmaydi va gapirishdan to'xtatib qo'yilmaydi. Bunday xatolar o'qituvchi tomonidan hisobga olib boriladi va ularni asta-sekinlik bilan bartaraf qilish choralari

ko‘riladi. Shunday qilib, o‘quv jarayonini insonparvarlik ruhida tashkil qilinishi salbiy ta‘sir etuvchi psixologik g‘ovlarning bartaraf etilishiga va talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllanishga olib keladi.

Ma‘lumki, har qanday maqsad ehtiyoj tufayli paydo bo‘ladi. Metodik adabiyotlarda ehtiyojni tahlil qilishda ta‘lim sharoitidan kelib chiqib, obyektiv va subyektiv ehtiyojlar farqlanadi¹. Obyektiv ehtiyoj: a) bo‘ljak tarjimonlarning yoshga oid psixologik xususiyatlari, qiziqishlari, chet til o‘rganish layoqatlari; b) kelgusi tarjimonlik faoliyatida nutq faoliyat turlaridan egallanishi lozim bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikma darajalari; v) davlat va jamiyat talabidan, ya‘ni ijtimoiy buyurtmadan kelib chiqib, bo‘ljak tarjimonlarning chet tildan bilim, malaka va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan dasturiy talablar haqidagi ma‘lumotlar asosida aniqlanadi.

Subyektiv ehtiyoj talabalarining: a) o‘rganilayotgan chet til va madaniyatiga munosabatlari; b) chet til o‘rganish usulari va strategiyalari; v) qaysi nutq faoliyat turlari (gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozuv)ni egallashga qiziqishlari haqidagi ma‘lumotlar asosida tahlil etiladi². Obyektiv va subyektiv ehtiyojlar haqidagi tahliliy ma‘lumotlar asosida ta‘lim maqsadlari aniqlanadi.



1.5-rasm. Talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishiga yo‘naltirilgan ta‘limdagi psixologik omillar

Talablarning kommunikaiv kompetentligini rivojlantirish shartlaridan biri, muayyan qoidalar va talablarni bajarishdir. Ushbu qoidalarning eng muhimlari quyidagilar:

¹ Edwards A., Knight P. Effective Early Years Education: Teaching Young Children. – London. Open University Press. 2001, – P: 45.

² Brown D.H. Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy. – NY.: Longman, 2007. – P: 152-153.

1. Eng keng tarqalgan qoida — bu oʻz-oʻzidan tushunilmagan yoki toʻliq tushunilmagan boʻlsa, fikr bildirishni boshlashning iloji boʻlmagan qoidadir.
2. Tushunish uchun doimiy tayyorgarlik qoidasi. Koʻpincha semantik va shaxsiy toʻsiqlar mavjud boʻlib, ular koʻpincha xabarlarini toʻliq va notoʻgʻri tushunishga olib keladi.
3. Aniqlik qoidasi. Nomaʼlum, noaniq soʻzlardan qochish kerak va begona yoki yuqori ixtisoslashgan atamalardan foydalanmaslik lozim.
4. Ogʻzaki boʻlmagan signallarni nazorat qilish qoidasi. Faqat nutqingizni va xabarning mazmunini nazorat qilish etarli emas. Bundan tashqari, uning tashqi eskort — yuz ifodalari, imo-ishoralari, intonatsiyasi, pozitsiyasi bilan bogʻliq boʻlgan qismida uning shaklini nazorat qilish kerak.
5. Oʻz nohaqligi qoidasi. Aloqa paytida har doim shaxsiy nuqtai nazar notoʻgʻri boʻlishi mumkinligiga ruxsat berish kerak. Bu koʻpincha jiddiy xatolardan ogohlantiradi.
6. Joy va vaqt qoidasi. Har qanday xabarning samaradorligi oʻz vaqtida amalga oshiriladigan eng munosib vaziyatni tanlashda keskin oshadi.
7. Ochiqlik qoidasi. YAngi ochilgan vaziyatlarning taʼsiri ostida oʻz nuqtai nazarini qayta koʻrib chiqishga tayyor boʻlishni, shuningdek, suhbatdoshning nuqtai nazarini qabul qilish va hisobga olish qobiliyatini anglatadi.
8. Faol va konstruktiv tinglash qoidasi samarali kommunikatsiyalarning asosiy shartlaridan biridir.
9. Fikr-mulohaza qoidalari. Bu qoida, oxir-oqibatda, kommunikativ jarayonning asosiy maqsadiga erishishni taʼminlaydi — oʻzaro tushunish³.

Talabalarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda kommunikativ yondashuvning lingvistik asoslari:

Kommunikativ yondashuvning lingvistik asoslari: chet til oʻqitishda kommunikativ yondashuv A.N.Xomskiy va D.Xaymslar tomonidan lingvistik diskursga kiritilgan kommunikativ kompetensiya atamasi va uning zahirida rivojlantirilgan til kommunikatsiya vositasidir, degan mazmundagi nazariya asosida rivojlantirilgan⁴. Kommunikativ kompetentlik atamasi ikki soʻzdan iborat boʻlib, kommunikatsiya – fikr yoki axborot almashish; kompetensiya – biror soha yoki masaladan yaxshi xabardorlik va ushbu sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritilishini taʼminlaydigan zaruriy bilim, malaka va koʻnikmalar majmuini anglatadi. Kompetensiya atamasi shaxsni maʼlum sohada faoliyat yurita olishga qodir etuvchi xos xususiyatni anglatadi.

References:

1. Edwards A., Knight P. Effective Early Years Education: Teaching Young Children. – London. Open University Press. 2001, – P: 45.
2. Brown D.H. Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy. – NY.: Longman, 2007. – P: 152-153.

³ Коммуникативная компетентность. Электронный ресурс: https://ru.wikipedia.org/wiki/Коммуникативная_компетентность. Дата обращения: 29.09.2019.

⁴ Canale S., Swain M. Theoretical base of communicative approaches to second language teaching and testing. –UK.: Oxford University Press, 2002. – P. 7.

3. Коммуникативная компетентность. Электронный ресурс:
https://ru.wikipedia.org/wiki/Коммуникативная_компетентность. Дата обращения:
29.09.2019.